

LUG'ATLAR TARIXI VA TARJIMA JARAYONIDA LUG'ATLARDAN FOYDALANA OLIISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156058>

Zayriyev Abdulhamid

Mustaqil tadqiqotchi

Anotatsiya

Maqolada tarjima jarayonida lug'atlardan foydalanish tarjimonlar uchun asosiy amaliyot va nuanslarini har tomonlama tushunish imkonini beradi. Lug'atlar so'z va iboralarning tarjimalari, ta'riflari va kontekstual ishlatilishini taklif qiluvchi qimmatli ma'lumot vositasi bo'lib xizmat qiladi. idiomatik iboralar yoki ixtisoslashtirilgan terminologiya bilan ishlashda aniq va kontekstga mos tarjimalarni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, lug'atlar sinonimlar, antonimlar va konnotatsiyalarni aniqlashga yordam beradi, bu esa tarjimonlarga asl matnning aniq ma'nosi va ohangini olish imkonini beradi. Umuman olganda, lug'atlardan foydalanish tarjima jarayonida ajralmas bo'lib, tarjimonlarga yuqori sifatli, madaniy jihatdan sezgir va lingvistik jihatdan to'g'ri tarjimalar yaratish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar

tarjima, frazeologik birliklar, ekvivalentlik, tillararo munosabatlar.

Аннотация

В статье использование словарей в процессе перевода позволяет переводчикам всесторонне понять основные приемы и нюансы. Словари служат ценным справочным инструментом, предлагая переводы, определения и контекстное использование слов и фраз. помогает обеспечить точный и соответствующий контексту перевод при работе с идиоматическими выражениями или специализированной терминологией. Кроме того, словари помогают идентифицировать синонимы, антонимы и коннотации, позволяя переводчикам уловить точное значение и тон оригинального текста. В целом, использование словарей является неотъемлемой частью процесса перевода, позволяя переводчикам выполнять высококачественные, учитывающие культурные особенности и лингвистически точные переводы.

Ключевые слова

перевод, фразеологизмы, эквивалентность, межъязыковые отношения.

Annotation

In the state, the use of dictionaries in the process of translation allows the translator to understand basic concepts and nuances. Slovare slujat tsennym spravochnym

instrumentom, predlagaya perevody, opredeleniya i kontekstnoe ispolzovanie slov i phraz. pomogaet obespechit tochnyy i sootvetstvuyushchy context translation when working with idiomatic expressions and specialized terminology. Krome togo, slovari pomogayut identifikirovat synonymy, antonymy i connotatsii, pozvolyaya perevodchikam ulovit tochnoe znachenie i ton originalnogo texta. V tselom, ispolzovanie slovarey yavlyaetsya neot'emlemoy chastyu protsesa perevoda, pozvolyaya perevodchikam vypolnyat vysokokachestvennyye, uchityvayushchie kulturnyye osobennosti i lingvisticheski tochnyye perevody.

Key words

translation, phraseological units, equivalence, interlinguistic relations.

Lug'atlar tarixi miloddan avvalgi 3500-yillarda ma'lum bo'lgan birinchi yozuv tizimini yaratgan shumerlar kabi qadimgi tsivilizatsiyalarga borib taqaladi. Yozuv tizimlarining rivojlanishi bilan odamlarga boshqalarning tilini tushunish va tarjima qilishda yordam beradigan lug'atlarga ehtiyoj ham ortib bordi.

Ma'lum bo'lgan eng qadimgi lug'atlardan biri bu akkad lug'aviy ro'yxati bo'lib, u miloddan avvalgi 2300-yillarga to'g'ri keladi. Bu ro'yxat shumer tilidagi so'zlarning akkad tiliga tarjimalarini o'z ichiga olgan bo'lib, u ulamolar va olimlarga shumercha matnlarni tushunish va tarjima qilishda yordam berish uchun ishlatilgan.

Tarix davomida lug'atlardan tarjimonlar uchun zarur vosita sifatida foydalanilgan. Ular turli tillardagi so'zlarning ma'nosi, talaffuzi va qo'llanilishi haqida ko'p ma'lumotlar beradi. Ushbu ma'lumot tarjimonlar uchun matnning ma'nosini bir tildan ikkinchi tilga to'g'ri etkazish uchun juda muhimdir.

Zamonaviy tarjima jarayonida lug'atlar hanuzgacha tarjimonlar uchun muhim vosita bo'lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar paydo bo'lishi bilan tarjimonlar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni tez va to'g'ri topishga yordam beradigan keng turdagi onlayn lug'atlar va tarjima vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Lug'atlar, shuningdek, matnni bir tildan ikkinchi tilga avtomatik tarjima qilish uchun so'zlarning katta ma'lumotlar bazasiga va ularning ma'nolariga tayanadigan mashinali tarjima tizimlarini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tilni tashkil qiladigan ikki bo'lakdan so'zlash mumkin. Ulardan bittasi grammatika, ikkinchisi esa so'z boyligidir. Jonli borliq bo'lgan tilning tiriklik manbai uning so'z boyligi va grammatikasi esa shu tilning tilshunoslik izlanishlarida o'z isbotini topadi. Tilda isbot manbaalari esa lug'atlar va

grammatika kitoblaridir va ba'zan ana shu ma'lumotlarning bitta manbada joy olgani ham ko'riladi.

Lug'atlar tillarning so'z boyliklarini qamrash, tilning tuzilishi va faoliyat ham ma'lumot berish, jamiyatning ta'lim va bilim saviyasi natijalarini namoyon qilish, boshqa til va jamiyatlar bilan o'rnatilgan aloqalarni ko'rsatib berish va hokazo juda ko'plab masalalarda xalqlar madaniyati doirasida muhim o'ringa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi jihatidan ilmiy tadqiqotlarning asosini tashkil etuvchi va birinchi bo'lib murojaat qilinadigan ma'lumot manbalaridir.

Somiy qavmlar sumarlar ustidan hukmronlik o'rnatishlari natijasida somiyalar mahalliy xalqning tili sumarchani o'rganishni kerak deb bilganlar, shu tarzda sumarcha so'z va jumalarning aqqodcha ma'nolarini bildiruvchi lug'atlarga ehtiyoj sezilgan. Natijada miloddan oldingi III ming yilning oxirlariga borib insoniyat tarixidagi eng qadimgi lug'atlar sumarlar tomonidan tuzilgan. Bu bilan birga diniy marosimlarda o'qilgan va Ninovadagi Assurbanipal kutubxonasida saqlangan matnlarning alfabetik materiallari bilan Onado'lida har xil joylarda amalga oshirilgan qazish ishlarida chiqqan bir navi lug'at sifatida baholasa bo'ladigan sumarcha, aqqodcha va gititcha tabletlarni ham eslab o'tish mumkin.⁸⁹

Xitoyliklarning til ustida amalga oshirgan izlanishlari tarixi miloddan oldingi XI asrgacha cho'ziladi. Ku Ye Wang nomli bir xitoylikning Hu Şin nomli bir lug'at yozgani ma'lum.⁹⁰

Hindistonliklar ilk til va grammatika faoliyatlarini muqaddas kitoblari Veda matnlari ustida amalga oshirganlar. Hindlarning miloddan oldin VI asrda yozilgan ilk lug'atlari Amarakumda nomi bilan ma'lum Amarastha'dir.⁹¹

Yunonlarda til izlanishlari asosida faylasuflarning din bilan so'z orasidagi aloqa xususida to'xtalishlari bilan bir qatorda, muqaddas matnlarning ilohiy kuchi, so'zning mohiyati va inson ustidagi ta'sirlari haqida rivojlantirgan qiziqish yotadi. Dastlab Homerosning Ilyada va Odessiasida, Aflotundek faylasuflarning kitoblarida kelgan so'zlarni tushinish uchun tuzilgan lug'atlar yoki yunon notiqqlari ishlatgan so'zlarni o'z ichiga olgan lug'atlar haqida gapirish mumkin. Yunoncha ma'lum eng qadimiy lug'at Julius Polluxning o'n jildlik Onomasticon nomli lug'atidir⁹². Qadim yunon grammatikachilari milodiy I asrda rimliklar davrida

⁸⁹ : S. N. KRAMER, *Tarih Sümer'de Başlar*, (тарж. Muazzez İlmiye ÇİĞ), Ankara 1990:14; AİİM. DİNÇOL, *Eski Anadolu Dillerine Giriş*, İstanbul 1970:25-30.

⁹⁰ Yusuf ÖZ, *Tarih Boyunca Farsça-Türkçe Sözlükler*, Ankara Üniv. Sosyal Bilimler Ens. Basılmamış Doktora Tezi, Ankara 1996:1-2.

⁹¹ Keng ma'lumot uchun qarang: Abidin İTİL, *Sanskrit Kılavuzu*, Ankara 1963:2-14.

⁹² Keng ma'lumot uchun qarang: Faruk Z. PEREK, *Eski Çağda Dilbilgisi Çalışmaları (Gramerin Doğuşu)*, İstanbul 1961:2-3.; A. DİLAÇAR, *Dil. Diller ve Dilcilik*, Ankara 1968:188.

g'aroyib va ravshan bo'lmagan ba'zi so'zlarning alfabetik lug'atlarini tuzishgan. Pamphilius tuzgan 95 kitoblik lug'at ana shulardan bittasidir.⁹³

Lotin lug'atchiligining ilk asarlaridan biri Verrius Flaccusning miloddan oldin I asrda tuzgan De Verborum Significatu (so'zlarning ma'nosi) nomli lug'atdir.

Tarixi juda uzoqlarga cho'zilgan lug'atlarning ko'pini milodiy V asrdan keyin yozilganlar tashkil etadi: sanskritcha botanika, tibbiyot va astronomiya lug'atlari; sanskritcha, tibetcha, mo'g'ulcha va xitoychadan boshqa tillarga qilingan ko'p tilli lug'atlar; arabchadagi barcha so'z boyligini o'z ichiga olishni maqsad qilgan lug'at izlanishlari, ibroniycha lug'atlar va hokazo.

Yigirma asrga kelgungacha X asrda farablik Ismoil Javhariyning Sihoh nomli arabcha lug'ati, XI asrda Mahmud Qoshg'ariyning Devoni lug'atit-turk nomli turkcha-arabcha lug'ati, XV asrda Feruzobodiyning al-Qomusul-muhit nomli lug'ati, P.S. Pallasning 285 tushinchani asos qilib olgan holda 200 ta Osiyo va Yevropa tilida ana shu tushinchalarning ma'nolarini bergan Linguarum Totius Orbis, Vocabulaira Comparativa nomi ostida 1787-yilda nashr qilingan lug'ati, J.C. Adelung va J.S. Vaterning Mithridates nomli to'rt jildlik, qariyb 500 ta tilda ma'lum gaplarning ma'nolarini bergan 1806-1817 yilda nashr yuzini kelgan lug'ati⁹⁴ va shu kabi manbalari birinchi bo'lib xayolga keladiganlardir. Bular bilan bir qatorda g'arbda bir tilli qilib tayyorlangan Henry Cockeram tomonidan 1623-yilda nashr qilingan The English Dictionaire va The Oxford English Dictionary (1879-1928 yillarda tugallangan) nomli inglizcha lug'atlar; Crusca akademiyasi tayyorlagan italyanacha Vocabulario (1612); Qirollik akademiyasi tayyorlagan ispancha Diccionario de la Lengua Cestallar1a (olti jild, 1726-1739); Maximilien Paul va Emile Littrening frantsuzcha Dictionnaire de la Français va Jacob Grimm hamda ukasi Wilhelm Grimmning nemischa Deutsches Wörterbuch nomli lug'atlari uzoq tarixli va qadim lug'atchilik an'anasini ko'rsatib beruvchi hamda ilk xayolga keladigan muhim lug'atlardir.

Qadim yunonlar lug'at uchun lekseis va leksikon, entsiklopediyalar uchun enkyklios paideia, lotinlar esa lug'at uchun glossa va entsiklopediya uchun esa encyclopaedia so'zlarini ishlatishgan⁹⁵. Lotincha dictionarium "lug'at" atamasini birinchi bo'lib 1225-yilda John Garland ishlatgan. Bugungi kunda nemischa lexikon, wörterbuch; wortschatz, frantsuzcha dictionnaire, lexique; vocabulaire; inglizcha dictionary, lexicon, vocabulary so'zlari bilan ifodalanuvchi lug'at turkchada birinchi marotaba 1920-yillarda turkmancha so'zlik sifatida ishlatilgan,

⁹³ Qadim davrda yozilgan juda ko'plab grammatika va lug'atlar haqida keng ma'lumot uchun qarang: Nuray YILDIZ, o'sha manba, S. 189- 210.

⁹⁴ Doğan AKSAN, *o'sha asar 71-75*

⁹⁵ Nuray YILDIZ, "Eskiçağın Başvuru Eserleri ve Eskiçağ Sözlükçülüğü ve Sözlükleri", Kebikeç, S. 6,1998: 190.

shundan keyin 1930-yillarga kelgungacha Turkiyada lug'at, qomus, nuxba, tuhfa, farhang, nisab, nazm, manzuma so'zlari bilan ifodalanib, ularning o'rniga Celâl Sahir [Erozan]ning taklifiga ko'ra "so'zlik" so'zi lug'atlarga kirgan va ishlatila boshlagan. Turkiy lahjalarida lug'at ma'nosida so'zluk, so'zlik, so'zdik, huzlak v.h. (turkcha), tiljit (yaqutch), lug'at (ozariy, uyg'ur, o'zbek va boshqalar), loflik (gagauz), slovar (chuvash, tuva, hakas va boshqalar) kabi nomlar ishlatib kelinmoqda .⁹⁶

Lug'atga ko'plab ta'riflar berilgan: Lug'at "Bir tilning (yoki birdan ortiq tilning) so'z boyligi, talaffuz shakllari, yozilishi bilan keltirilgan, bularning mustaqil shakl birliklari asosida, ularning boshqa turkumlar bilan hosil qilgan so'z birikmalari bilan birgalikdagi ma'nolarini, har xil ishlatilishlarini ko'rsatgan bir so'z boyligi kitobi"⁹⁷; "Bir tildagi so'zlarning barchasi yoki bir qismini, talaffuzlari, grammatik shakl va funktsiyalari, o'zaklari, ma'nolari, so'z tuzish afzalliklari, turli yozilishlari, qisqartmalari, sinonimlari va antonimlari yoki boshqa tildagi ma'nolari bilan, asosan alfabetik tartibda, ba'zan esa eski va yangi qo'llanishlarini ko'rsatib bergan iqtiboslari bilan taqdim etgan manba"⁹⁸ ; "Bir tildagi lug'at birliklarining barchasi yoki bir qismini, asosan alfabetik tartibda, ba'zi hollarda mavzular yoki tegishli sohalariga ko'ra ma'nolarni, talaffuzlarni, o'zaklarni, ishlatilishlarni, grammatik bog'lanishlarni, sinonimlarni va shu kabi yoki boshqa bir tildagi ma'nolarini taqdim qiladigan asar"⁹⁹ " ... hokazo ko'rinishda ta'riflangan.

So'zlar tillarning ko'zgusi ekanini ma'lum qilgan Jean Guenot, Ferdinand de Saussuredan iqtisbo keltirib "Keng ma'noda til bir jamiyatni tashkil etuvchi unsurdir. Til fikr, hayajon va hissiyotning yagona vositasidir. Tilsiz fikrni xayol ham qilib bo'lmaydi. Til insoniy tajribaning analiziga ko'ra xabarlashuv vositasidir. Bu analiz har jamiyatda xar hil bo'lishiga qaramay ko'plab jihatdan o'xshashliklar namoyon qiladi. Deyarli har tilda lug'at va jumla tuzilishi bir xil voqe'likning ikki ko'rinishi darajasidadir.

Bir gapning so'zlarini xisoblaganimizda, o'rnaklarni yuzaga chiqargan lug'at birliklarini xisoblagan bo'lamiz"¹⁰⁰ degan so'zlari bilan lug'at va til munosabatini ta'kidlaydi.

Lug'atni bir tilning xazinası sifatida baholagan Şemseddin Sami til jihatidan lug'atning ahamiyatini shunday bayon qiladi: "Lug'at bir tilning hazinası hukmidadir. Ana shu xazinaning sarmoyası har tilning o'ziga xos ko'zlaridir.

⁹⁶ Mehmet ÖLMEZ, "Tarihi Türk Dillerinin Sözlükleri", Kebikeç, S. 6,1998:109-110.

⁹⁷ Doğan AKS AN, *Her Yönüyle Dil (Ana Çizgileriyle Dilbilim)* III, TDK Yayınları, Ankara 1982:77.

⁹⁸ *Ana Britanica Ansiklopedisi*, "Sözlük" maddesi, 19.cilt, s. 587.

⁹⁹ Berke VARDAR, *Açıklamalı Dilbilim Terimleri Sözlüğü*, 1 baskı, ABC Kitabevi AŞ, İstanbul 1998:191.

¹⁰⁰ Jean GUENOT, *Clefs Pour les Langues Vivantes*, Ed. Seghers, Paris 1971:74.

Dunyoda hech qaysi insonni tasavvur qilib bo'lmaydiki, tilining barcha so'zlarini bilsin yoki hammasini yodida saqlay olsin yoki bo'lmasam o'z tilini barcha qoidalari bilan so'zlay olsin. Biroq buni yozma ko'rinishda ifoda etish mumkin. Bu esa juda yaxshi lug'at va o'sha darajada bir grammatika kitobi tayyorlash bilan ta'minlanadi. Bunday faoliyat bilan bir til osongina yozuv tiliga ham aylantirilishi va chet elliklarning ana shu tilni o'rganishlariga vosita bo'lishi mumkin. Yaxshi lug'atga ega bo'lmagan bir tilning adabiy tillar orasidan o'z o'rnini olishi hech qachon amalga oshmaydi. Boylik darajasidagi so'zlaridan judo bo'lgan tillar qashshoqlashadi, o'zlarini ifoda eta olmaydi va ichlaridagi xatolar kun sayin ko'payib boradi. Shuning uchun puxta lug'atga ehtiyoj bor...¹⁰¹"

Tillar uchun eng ahamiyatli manbalar orasidan o'rin olgan, shuncha xususiyatni o'z ichiga qamragan, tayyorlanish va ishlatilish maqsadidan mavzusigacha, uslubidan tortib tarkibi va tartiblanishigacha juda ko'plab jihatdan xilma-xil bo'lgan lug'at haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lish uchun lug'atlarni tasniflash to'g'riroq bo'ladi.

Turlarning tasnifi

Lug'atlarning tuzilish jihatidan chigalligi sababli tasniflanishlari masalasida ham o'zgacha tarzlarga duch kelinadi. Ulardan keyin tarqalganlaridan bittasi:

"1. Tasviriy (ta'rifli) / qoidachi lug'atlar (so'zlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ziddiyatiga ko'ra o'rganadilar)

2. Tarixiy/xamzamon yoki muayyan vaqtdagi lug'atlar, (so'zlarni tarixiy rivojlanish doirasida o'rganadilar. Faqatgina muayyan bir davrning, ko'pincha bugungi kunimizning tilini namoyon qilishga harakat qiladilar.

3. Semantik/onomastik lug'atlar, (so'zlarni misolli izohlari bilan taqdim qiladi./obyektdan, tushunchadan kelib chikib bir mavzudagi hamma so'zlar to'planadi;

4. Maxsus tillarga bog'liq lug'atlar, (mintaqaviy shevalar, bilim va kasb sohalari, jargon lug'atlari v.b. bilan ba'zi yozuvchi va shoirlar haqida maxsus lug'atlar.)

5. Bir tilli/ikki tilli yoki ko'p tilli lug'atlar. (Bir tilli lug'atlar: a. imlo qo'llanmasi (lug'ati), b. Fonetik (talaffuz) lug'at. s. Umumiy lug'atlar, (so'zlarning ma'nolari bilan birga grammatik ma'lumotlari, o'zagi haqida ma'lumot, qo'llanilishi va uslublariga bog'liq, masalan jargon, rasmiy yozishmalar tili, me'morlik, konchilik... kabi, ma'lumotlarni taqdim qiladi.) d. Etimologik lug'atlar, (So'zlarning o'zagi va til tarixi bo'yicha uchragan o'zgarishlari haqida ma'lumot

¹⁰¹ Şemseddin Sami, *Kamûs-ı Türkî*, Çağrı Yayınları, İstanbul 1987:3-9

beradi. ye. Frazelogik birliklar va maqollar lug'atlari. f. Konseptual tushunchali lug'atlar, g. Sinonimlar va antonimlar lug'ati, h. Suratli lug'atlar, 1. Tarkibiy qiymat lug'atlari, i. Xorijiy so'z lug'atlari. (Ular xorijiy tillardan olangan so'zlarning misollari bilan, sinonimlari yordamida va ta'rifi bilan tushuntiradi.)" ko'rinishda qilinganidir.

Lug'atlar mavzu va uslublariga ko'ra yana boshqa tasnifi esa shundaydir:

1. Ta'riflovchi/ta'rifiy, qoidali lug'atlar.
2. Sinxron/diaxronik lug'atlar.
3. Umumiy/texnik lug'atlar.
4. Umumiy iste'mol/o'rganishni maqsad qilgan lug'atlar
5. Bir tilli/ikki yoki ko'p tilli lug'atlar .¹⁰²

Tayyorlanish maqsadlari va mavjud xususiyatlariga ko'ra amalga oshirilgan lug'at tasniflashlari ichida umumiy ravishda manba qilib olinganlardan bittasi shudir:

1. Bir yoki bittadan ko'p tilning so'z boyligini o'rganish jihatidan: a) Bir tilli, b) Ko'p tilli lug'atlar.

2. Alfabetik tartib asos qilib olinish yoki olinmasligiga ko'ra:

a) Alfabetik lug'atlar

b) Tushincha (yoki tushincha doirasi) lug'atlari.

3. O'rganilgan so'z boyligining vasfiga ko'ra:

a) Umumiy lug'atlar (mushtarak til, yozuv tili lug'atlari, ensiklopedik lug'atlar).

b) Lahjashunoslik lug'atlari.

v) Sinonimli, ononimli, antonimli lug'atlar.

g) Xorijiy frazeologik lug'atlar.

d) Tarixiy lug'atlar.

ye) Etimologik lug'atlar.

yo) Mutaxassislik sohasi lug'atlari (atama lug'atlari).

j) Argo lug'atlari.

z) Frazelogik birliklar va maqollar lug'ati.

k) Narratologik lug'atlar.

l) San'atchi va matn lug'atlari.

m) Noto'g'ri joylashgan frazeologik lug'atlar.

n) Teskari uslubli lug'atlar va boshqa lug'at turlari .¹⁰³

¹⁰² Ahmet KOCAMAN, "Dilbilim, Sözlük, Sözlükçülük", Kefo'&eç, S. 6,1998:111.

¹⁰³ Bu mavzuda keng ma'lumot uchun qarang: Doğan AKSAN, o`sha asar, s. 77-85.

Turk tilining tarixiy davrlarida yozilgan lug'atlar ham tilshunoslar tomonidan umumiy ravishda to'rt qism o'rganilgan: 1. Qoraxoniylar davri lug'atlari, 2. Chig'atoy davri lug'atlari, 3. Qipchoq davri lug'atlari, 4. Usmoniylar davri lug'atlari.

Shubhasiz til ilmiy me'yorlarga ko'ra lug'atlarni benuqson tasniflay olish uchun tillarning lug'atlari to'liq o'rganilishi kerak. Til bir davr ichida vaqt o'tishi bilan grammatik va so'z boyligi jihatidan o'zgarishga uchraydi yoki o'z ildiz va qo'shimchalaridan har xil yo'llar bilan yangi so'z va shakllar yaratib so'z boyligini orttiradi. Tilning mana shu xususiyatlarini aks ettirgan lug'atlar ham vaqt o'tishi bilan bir qator o'zgarishlarga uchraydi. Shunga bog'liq holda berilgan ta'riflar va qilingan tasniflarning ham o'zgar(tiril)ishi tabiiydir.

Bu mavzuga Turkchanning lug'atlari nuqtai nazaridan qaralganda qilingan klassifikatsiyaning ba'zi nuqsonlarini tilga olsa bo'ladi, yoki ba'zi lug'at to'plamlari (frazalari)ni o'zaro ajratish zarurati yuzaga chiqishi mumkin. Ba'zi lug'atlar borki, tur sifatida bittadan ko'p guruhga olish yoki ularni ta'riflaydigan guruhni ta'yin qilishda qiyinchilikka duch kelish mumkin. Turkchadagi lahjalardan bittasining lug'ati lahjashunoslik lug'atlari doirasida baholanishi mumkin bo'lganidek ayni paytda so'z boyligining xususiyati jihatidan maqol va frazeologik birliklar (atamalar) lug'ati ham bo'lishi mumkin. Bu lug'at bir tilli yoki ko'p tilli qilib tuzilganidek alfabetik tartibga ko'ra yoki mazmun doirasiga ko'ra ham tartiblangan bo'lishi mumkin. Manzum holda tartiblangan ikki tilli bir lug'at frazeologik birliklar va atamalarni ham o'rganishi mumkin va hokazo.

Lug'at tuzishdagi uslublar.

Turk tilshunosi va lug'atchisi Mahmud Qoshg'ariy Devoni lug'atit-turkni tartibga solarkan o'z davrigacha arab va fors lug'atchiligida ta'yin qilingan va tatbiq etilgan uslublarning hammasini bilib va ulardan foydalanib turkcha uchun bir navi o'ziga xos uslub shakllantirgan. Turkcha lug'atlarning uslub sifatida tartibga solinishida ham shu, ham davr mobaynida dunyodagi lug'atchilik tushinchasidan va uslublaridan tabiiy ravishda ta'sirlangan. Turkchanning lug'atlarida foydalanilgan tartibga solish yo'llarini yana ham tushina olish uchun dastlab qadimgi davrdagi rivojlanish bosqichlariga qisqacha nazar solib arab va fors lug'atchiligida amal qilingan uslublarga e'tiborni qaratishda foyda bor¹⁰⁴.

¹⁰⁴ Араб ва форс луғатчилигида услуб ҳақида кенг маълумот учун қаранг: Владимир Михайлович БЕЛКИН, *Арабская лексикология*, Москва 1975 ва Yusuf ÖZ, *ýша асар*, s. 9-18; 29-30.

Arab tilshunoslar va lug'atchilar o'z lug'atlarini ikkita asosga ko'ra tuzganlar. Ulardan bittasi ma'noni asos qilib olib ma'nodan so'zga yetish yo'li; ikkinchisi so'zni asos qilib olib so'zdan ma'noga borish yo'lidir.

Lug'atlarni tartibga solishda ma'noni asos qilib olib ma'noda so'zga yetish yo'lini afzal ko'rganlar so'zlarni mavzulariga ko'ra xar hil savrlavhalar ostida yig'ib bayon qilganlar. Shu yo'l bilan tartibga solingan lug'atlar Ma'âjimul-mavzu'ât "mavzu lug'atlari" va Ma'âjimul-ma'âniy "ma'no lug'atlari" ko'rinishida ataladi. modda boshlarini tartiblashda so'zni asos qilib olganlar esa alfabetik tartib nizomini qo'llaganlar va bu lug'atlar umumiy ravishda Ma'âjimul-huruf "alfabetik lug'atlar" deb ataladi.

Arab lug'atchiligida tatbiq qilingan uslublarni shunday xulosa qilish mumkin:

1. Qalb qilish, ya'ni "o'rinlarini o'zgartirish" maktabi (yoki al-Xalil maktabi),
2. Mavzulariga ko'ra tasniflash maktabi (yoki Abu Ubayd maktabi),
3. Qofiya maktabi (yoki al-Javhariy maktabi),
4. Alfabetik maktab (yoki al-Barmakiy maktabi).

1. Qalb qilish, ya'ni "o'rinlarini o'zgartirish" maktabi (youi al-Xalil maktabi): arab lug'atchiligida bu uslub birinchi bo'lib filolog va aruz bilimdoni al-Xalil tomonidan ishlatilgan. al-Xalil so'zlarning ildizlarini tashkil qilgan jarangli harflarni asos qilib olgan. Bundan tashqari xuddi o'sha jaranglilarning o'rin almashishi bilan tashkil topuvchi so'zlarni bir joyga jamlagan. Harflarning tartiblanishida esa eng orqadagi g'irtloq tovushlaridan oldindagi lab totushlariga qarab, harflarning chiqish o'rinlariga ko'ra tartiblash yo'lidan borgan¹⁰⁵. Shunga ko'ra "ayn, ha, he, g'oyin, xi, kaf, jim, shin, dad, sod, sin, ze, to, ta, dal, zi, zal, sa, ro, lam, nun, fa, ba, mim" ko'rinishida tartiblangan va eng oxiriga esa "alif, vav, ya" jarangsiz harflari ilova qilingan. Bu tartiblashga ko'ra har harf kitob nomi berilgan "kitâbul-ayn", "kitâbul-xa", "kitâbul-ha" kabi qismlarga ajratilgan, har kitob esa so'zlarning ildizlariga ko'ra sunoiy "ikki harfli", sulosiy "uch harfli", rubo'iy "to'rt harfli", xumosiy "besh harfli" ko'rinishda boblarga ajratilgan, yana har bobda qalb qilish yo'li bilan yasalgan so'zlar tartiblangan.

Harflarni maxrajlariga ko'ra tartiblash asos qilib olingan bu uslub lug'atlardan foydalanishni qiyinlashtirishiga qaramay qariyb ikki yuz yil foydalanilgan. Biroq bu uslubdan foydalanganlar keyinchalik faqatgina qalb "o'rinlarini o'zgartirish" asosiga sodiq qolgan holda harflarning tizilishida alfabetik tartiblashni amalga oshirganlar.

¹⁰⁵ Nihad M. ÇETİN, "Arap Edebiyatı" maddesi, *DİA*, 3, s. 298.

2. Mavzulariga ko'ra tasniflash maktabi (yoki Abu Ubayd maktabi): Ilk boshda Qur'on va hadislarda kelib ma'nosi noma'lum yoki to'liq tushinilmagan so'zlarni izohlash uchun yozilgan, keyinchalik turli mavzularda saralangan so'zlarni qamraganliklari jihatidan tuzilgan lug'atchalar (majmualar) hozirlangan. Faqatgina bir mavzuga oid so'zlar izohlangan bu lug'atchalar bu uslubning asosini tashkil etadi. Keyinchalik har xil mavzulardagi so'zlarning tartiblanishida bu ichki tarkiblar birlashtirilib Ma'ajimul-mavzu'at "mavzu lug'atlari" va Ma'ajimul-ma'aniy "ma'no lug'atlari" deb nomlangan katta tematik lug'atlar tuzilgan. Bir mavzuga oid lug'atlarni o'z ichiga olgan lug'atchalarga Xulqul-insan "inson tabiati", "Kitabul-ibl" "tuyalar kitobi", Kitabun-nab'at vash-shajar "o'simliklar va daraxtlar" va hokazo nomlar berilgan. Bu lug'atchalar so'zlarni mavzulariga ko'ra tasniflagan qamrovli lug'atlarga manba vazifasini o'tagan.

Arab lug'atchiligida bu maktabning asoschisi Abu Ubayddir. Turli mavzularda yozilgan lug'atchalarni bir joyga jamlagan al-G'aribul-musannaf nomli yigirma yetti bo'limlik kitobida har bo'limda bir mavzuga oid so'zlar jamlangan. 1017 ta arabcha so'zlarni o'z ichiga olgan bu lug'atda mavzu nomlari shunday: Kitabu Xulqil-insan "inson tabiati", Kitabun-nisâ "ayollar", Kitabul-libâs "kiyimlar", Kitabu at'ima "yeguliklar", Kitabu amroz "kasalliklar" va hokazo.

Mavzulariga ko'ra tasnif qilingan lug'atlarda so'zning bir mavzu nomi ostida bitta ma'nosi berilgani uchun bittadan ko'p ma'nosi bo'lgan so'zlar har xil joy va nomlar ostida joy oladi. Ko'p ma'noli so'zlarning qaysi ma'nosi asos qilib olinganini bilib bo'lmaydi, shuningdek qaysi mavzuda berilganini aniqlash ham nihoyatda mushkuldir.

3. Qofiya maktabi (yoki al-Javhariy maktabi): Arab lug'atchiligida bu maktabning yetakchisi asli turk bo'lgan al-Javhariy 28 ta bob va har bob 28 ta faslga bo'lingan as-Sihoh nomli lug'atida bu uslubdan muvaffaqiyatli foydalangan. Javhariyning o'z tajribasi va oldinroq tuzilgan lug'atlardan foydalanib asos solgan bu uslubida so'zlar zoid (ortiqcha) harflaridan ajratilgandan keyin so'zning oxiridagi so'nggi harf asos qilib olingan holda so'nggi harflari bir xil bo'lganlar bob nomi ostida jamlangan va boblar alfabetik tarzda tartiblangan (misol uchun, bobul-alif, bobul-bâ, bobul-jim...). Boblar ichida jamlangan so'zlar o'zaklaridagi ilk harflariga ko'ra fasllarga ajratilgan va fasllar esa alfabetik tarzda tartiblangan.

Bu uslubga ko'ra tayyorlangan lug'atlarda izlangan so'z o'zak harfining oxirgisiga qarab dastlab qaysi bobda ekani, bob ichida eng birinchi o'zak harfiga qarab qaysi faslda ekani, undan keyin esa ikkinchi, uchinchi va boshqa harflarining alifbo tartibiga ko'ra topiladi.

4. Alfabetik maktab (yoki al-Barmakiy maktabi): Arablar bu uslubni birinchi marta XI asrning boshlaridan qo'llaganlar. Bugungi ma'noda lug'atlar alfabetik tarzda tartiblangan va ma'no berilgan. Bu maktabning yetakchisi Abul-Ma'oliy Muhammad ibn Tamim al-Barmakiy al-Muntaxab fil-lug'a nomli lug'atida bu uslubdan foydalangan. Arabcha so'zlarning boshidagi zoid (ortiqcha) harflar asos qilib olish yoki olmaslik borasida kelishmovchilik bo'lib o'tgan, qaysidir lug'atchilar o'zni kelganda bu harflarga ishora qilib zoid harflarni olganlar, ko'pchilik esa faqatgina o'zak harflarni asos qilib olgan. Fors lug'atchiligida esa yuqorida uchinchi moddada aytilgan uslub uzoq muddat foydalanilgan, eng to'g'risi forscha lug'atlarning katta qismi mana shu uslubda tartibga solingan. Fors lug'atchiligida to'liq alfabetik uslubning joylashuvi kechroq amalga oshgan. Bu uslub, xususan eronlik adiblar yevropaliklarning ilmiy uslublari bilan tanisha boshlagan paytlarigacha bir tartibga solina olgan emas. bu holat lug'atchiligi jihatidan ham unchalik farqli bo'lmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S. N. KRAMER, *Tarih Sümer'de Başlar*, (тарж. Muazzez İlmiye ÇİĞ), Ankara 1990:14; AİİM. DİNÇOL, *Eski Anadolu Dillerine Giriş*, İstanbul 1970:25-30.
2. Yusuf ÖZ, *Tarih Boyunca Farsça-Türkçe Sözlükler*, Ankara Üniv. Sosyal Bilimler Ens. Basılmamış Doktora Tezi, Ankara 1996:1-2.
3. Abidin İTİL, *Sanskrit Kılavuzu*, Ankara 1963:2-14.
4. Faruk Z. PEREK, *Eski Çağda Dilbilgisi Çalışmaları (Gramerin Doğuşu)*, İstanbul 1961:2-3.; A. DİLAÇAR, *Dil. Diller ve Dilcilik*, Ankara 1968:188.
5. Nuray YILDIZ, "Eskiçağın Başvuru Eserleri ve Eskiçağ Sözlükçülüğü ve Sözlükleri", *Kebikeç*, S. 6,1998: 190.
6. Mehmet ÖLMEZ, "Tarihi Türk Dillerinin Sözlükleri", *Kebikeç*, S. 6,1998:109-110.
7. Doğan AKS AN, *Her Yönüyle Dil (Ana Çizgileriyle Dilbilim) III*, TDK Yayınları, Ankara 1982:77.
8. *Ana Britanica Ansiklopedisi*, "Sözlük" maddesi, 19.cilt,s. 587.
9. Berke VARDAR, *Açıklamalı Dilbilim Terimleri Sözlüğü*, 1 baskı, ABC Kitabevi AŞ, İstanbul 1998:191.
10. Jean GUENOT, *Clefs Pour les Langues Vivantes*, Ed. Seghers, Paris 1971:74.
11. Владимир Михайлович БЕЛКИН, *Арабская лексикология*, Москва 1975 s. 9-18.